

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

BOLALARDA MUSIQA CHOLG'U IJROCHILIGI MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

**Jumanazarov Zohidjon Eldor o‘g‘li**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
menejment:(madaniyat va san’at sohasi menejmenti)

ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

<https://orcid.org/0009-0009-0193-8539>

e-mail: [zohidjonjumanazarov7@gmail.com](mailto:zohidjonjumanazarov7@gmail.com)

Tel.: +(998)-94-043-2285

**Sagdullayev Abdulloh Sayfulla o‘g‘li**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
ashula va raqs ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

e-mail: [abdullohsagdullayev4@gmail.com](mailto:abdullohsagdullayev4@gmail.com)

Tel.: +(998)-33-536-15-05

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda cholg‘u musiqa ijrochiligini rivojlantirishning ahamiyati, usullari va bu jarayonda uchraydigan muammolar ko‘rib chiqiladi. Musiqiy ta’limning bolalar rivojlanishiga hissiy, intellektual va ijodiy jihatdan ta’siri yoritilgan. Shuningdek, samarali pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** musiqiy ta’lim, cholg‘u ijrochiligi, ijodkorlik, pedagogika, bolalar rivojlanishi, musiqa usullari, zamonaviy texnologiyalar.

### DEVELOPMENT OF MUSICAL INSTRUMENT PERFORMANCE SKILLS IN CHILDREN

**Zohidjon Jumanazarov Eldor o‘g‘li**

Uzbekistan State Institute of Art and Culture

2<sup>nd</sup> course student majoring in Management:

(Arts and Culture Management).

<https://orcid.org/0009-0009-0193-8539>

e-mail: [zohidjonjumanazarov7@gmail.com](mailto:zohidjonjumanazarov7@gmail.com)

Tel.: +(998)-94-043-2285

**Sagdullayev Abdulloh Sayfulla o‘g‘li**

Uzbekistan State Institute of Art and Culture

1<sup>st</sup> course student majoring in singing and dance

e-mail: [abdullohsagdullayev4@gmail.com](mailto:abdullohsagdullayev4@gmail.com)

Tel.: +(998)-33-536-15-05

**Abstract:** This article examines the importance and methods of developing instrumental music performance skills in children and the challenges encountered in this process. The influence of music education on children’s emotional, intellectual, and creative development is highlighted. Additionally, the article discusses effective pedagogical approaches and the opportunities for utilizing modern technologies. It is useful for music education specialists and parents.

**Keywords:** music education, instrumental performance, creativity, pedagogy, child development, teaching methods, modern technologies.

**Аннотация:** В статье рассматриваются значение и методы развития инструментального музыкального исполнительства у детей, а также проблемы, возникающие в этом процессе. Подчёркивается влияние музыкального образования на эмоциональное, интеллектуальное и творческое развитие детей. Также обсуждаются эффективные педагогические подходы и возможности использования современных технологий. Статья будет полезна специалистам по музыкальному образованию и родителям.

**Ключевые слова:** музыкальное образование, инструментальное исполнительство, креативность, педагогика, развитие детей, методы обучения, современные технологии.

Bolalarda cholg'u musiqa ijrochilagini rivojlantirish nafaqat ularning musiqiy qobiliyatlarini oshirish, balki shaxs sifatida barkamol shakllanishida ham katta ahamiyatga ega. Musiqa insonning hissiy dunyosini boyitib, uni intellektual, ijtimoiy va estetik jihatdan rivojlantiradi. Ayniqsa, bolalik davrida cholg'u asboblarini chalish san'ati bilan shug'ullanish ularning mantiqiy fikrash, ijodkorlik va o'zini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi[1:1].

Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatları o'z ifodasini topganki, ulardan tarladigan ovoz ham shunga moslashgan. Zamonaviy jarayonda o'tmish an'analariga yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi[2].

Musiqani eshitish va cholg'u chalish IQni, xotirani yaxshilash va umuman, aqli bolani kashf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi[3:136].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa bilan oshno bolalar o'qish, yozish, matematika, tilni yaxshiroq o'zlashtiradilar va musiqaga oshno bo'limgan bolalarga qaraganda yuqori konsentratsiya va fazoviy fikrashga ega. Musiqa, shuningdek, birinchi yoki ikkinchi tilni o'rganishda grammatika va talaffuzdan tortib, ritm va urg'ularni tezda tanlashgacha bo'lgan ko'plab og'zaki til afzalliklarini taqdim etishi mumkin. Bu ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishi, ishslash tashvishlarini kamaytirishi, vosita rivojlanishiga yordam berishi va ijodkorlikni oshirishi mumkin[11:1]. Bundan tashqari, yakkaxon musiqa ijrosi o'z qobiliyatini va o'zini o'zi qadrlashni oshirishi ma'lum.

Bolalik davri musiqiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Chunki bu yoshda bolaning eshitish qobiliyati, ritmnii his qilish va xotirasi ancha o'tkir bo'ladi. Shu sababli, musiqiy qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash bolalarning kelajakdag'i ijodiy yutuqlari uchun zamin yaratadi. Xususan:

Yoshga mos uslub tanlash: Bolaning yoshiga mos cholg'u asboblarini tanlash uning qiziqishini oshiradi va mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi[4:1]. Individuallikni hisobga olish: Har bir bola o'ziga xos iste'dod va qobiliyatga ega. Ularning individualligini e'tiborga olgan holda musiqiy mashg'ulotlarni tashkil etish muhimdir[3:145].

Musiqa cholg'ulari bilan shug'ullanish bolalar rivojlanishiga quyidagi jihatlar orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

Hissiy va ijtimoiy rivojlanish. Cholg'u chalish bolalarda o'z his-tuyg'ularini ifodalashga yordam beradi[5]. Guruhda musiqa ijro etish ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, mas'uliyat hissini oshiradi[6:4].

## Ilmiy elektron jurnali

Intellektual rivojlanish. Notalarni o‘qish va cholg‘u chalish mantiqiy fikrlashni, matematik va xotira qobiliyatlarini mustahkamlaydi[3:137]. Raqamli va geometrik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi (masalan, ritm va interval tushunchalari orqali)[7:6].

Ijodkorlikni rivojlantirish. Musiqa ijrosi bolalarda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi[3:136]. Yangi ohanglar yaratishga undaydi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi[1:137].

Aynan shuning uchun ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 1-ilovasidagi ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o‘rgatilib, bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritilishi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘srimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkazilishi, musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilishi, notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta’minalash umumta’lim mакtablarini darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minalash tizimiga kiritilishi hamda o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko‘ra milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish mahorati to‘garaklari tashkil etilishi [12:1] ham bolalarning musiqa cholg‘ularini o‘rganib, ularni kelajakda yetuk kadr bo‘lib yetishishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarda cholg‘u ijrochilagini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik usullar va tamoyillarni qo‘llash samarali hisoblanadi:

- ✓ Yoshlikdan boshlab musiqiy ta’lim berish: Musiqiy mashg‘ulotlarni imkon qadar erta boshlash bola qobiliyatlarini tezroq rivojlantiradi[3:145].
- ✓ Qiziqarli metodlardan foydalanish: Bolalarni zeriktirmaslik uchun o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar o‘tkazish[8:4].
- ✓ Maqtov va rag‘batlantirish: Bolalarni kichik yutuqlari uchun ham rag‘batlantirish ularning qiziqishini oshiradi[9:775].
- ✓ Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Mobil ilovalar va interaktiv dasturlar orqali cholg‘u chalishni o‘rganishni yanada qiziqarli qilish[10:4].

Bolalarda cholg‘u musiqa ijrochilagini rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin:

- Bolaning qiziqishini pasayishi, mashg‘ulotlarga bo‘lgan e’tiborining sustligi.
- Cholg‘u asboblarining qimmatligi va ularni ta’minalashdagi qiyinchiliklar.
- Malakali o‘qituvchilar yetishmasligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun ota-onalar, maktab va musiqiy ta’lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat darajasida musiqa ta’limiga e’tibor qaratish, bolalar uchun qo‘srimcha mablag‘ va imkoniyatlar yaratish lozim. Bolalarda cholg‘u musiqa ijrochilagini rivojlantirish nafaqat musiqiy iste’dodni oshirish, balki ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun muhimdir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun bolaning yoshiga, qiziqishlariga va imkoniyatlariga mos yondashuv zarur. Yoshlikdan boshlab musiqiy ta’lim berish va bolalarning ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali biz kelajak avlodning musiqiy madaniyatini boyitib, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishiga ko‘maklashamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Liu Y. The Influence of Music Activities on Children's Creative Thinking Development //SHS Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 180. – C. 04001.
  2. SH.Rahimov, A. Lutfullayev- —Cholg'ushunoslikl, «Musiqo» nashriyoti, T., 2010.
  3. Natalie Sarrazin, “Music and the Child”. Open SUNY Textbooks, 2016.
  4. <https://allasmusicstudio.com.au/what-are-the-best-instruments-to-learn-based-on-age/#pp-toc-4mjzeg3ui8of-anchor-0>
- Qarang: <https://allasmusicstudio.com.au/what-are-the-best-instruments-to-learn-based-on-age/#pp-toc-4mjzeg3ui8of-anchor-0:~:text=of%20your%20age.-,Importance%20Of%20Selecting%20The%20Appropriate%20Instrument%20According%20To%20Age,-A%20person%E2%80%99s%20capacity>
5. <https://www.childrenssociety.org.uk/what-we-do/blogs/the-magic-of-music-on-childrens-emotional-wellbeing>
  6. Cross, I. (2001). Music, mind and evolution. *Psychology of Music*, 29(1), 95-102. <https://doi.org/10.1177/0305735601291007>
  7. [https://www.researchgate.net/publication/327365478\\_The\\_Geometry\\_of\\_Musical\\_Rhythm\\_What\\_Makes\\_a\\_Good\\_Rhythm\\_Good](https://www.researchgate.net/publication/327365478_The_Geometry_of_Musical_Rhythm_What_Makes_a_Good_Rhythm_Good)
  8. [https://www.researchgate.net/publication/287245546\\_Children's\\_Games\\_and\\_Playground\\_Activities\\_in\\_School\\_and\\_Their\\_Role\\_in\\_Development](https://www.researchgate.net/publication/287245546_Children's_Games_and_Playground_Activities_in_School_and_Their_Role_in_Development)
  9. [https://www.researchgate.net/publication/11182972\\_The\\_Effects\\_of\\_Praise\\_on\\_Children's\\_Intrinsic\\_Motivation\\_A\\_Review\\_and\\_Synthesis](https://www.researchgate.net/publication/11182972_The_Effects_of_Praise_on_Children's_Intrinsic_Motivation_A_Review_and_Synthesis)
  10. [https://www.researchgate.net/publication/341361826\\_Troubadour\\_A\\_Gamified\\_E-learning\\_Platform\\_for\\_Ear\\_Training](https://www.researchgate.net/publication/341361826_Troubadour_A_Gamified_E-learning_Platform_for_Ear_Training)
  11. <https://www.dumex.com.sg/toddler/development/childs-musical-intelligence.html>
- Qarang: <https://www.dumex.com.sg/toddler/development/childs-musical-intelligence.html#:~:text=Tadqiqotlar%20shuni%20ko%27rsatadiki,qadrlashni%20oshirishi%20ma%27lum>.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldaggi PQ-112-son qarori. Qarang: <https://www.president.uz/oz/lists/view/4960>
  13. Qoraboyev, Shuhrat. "O ‘ZBEK MUMTOZ QO ‘SHIQCHILIGI MILLIY MEROSIMIZ SIFATIDA." *Oriental Art and Culture* 4.5 (2023): 297-300.
  14. Erkinovich, Qoraboyev Shuxrat. "Pedagogical Skills of Music Teachers." *Journal of Creativity in Art and Design* 2.2 (2024): 36-42.
  15. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San’ati Va Yoshlar Tarbiyasi." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.2 (2023): 16-20.